

**XORIJLIK TALABALAR KONTINGENTI DINAMIKASI VA ULARNING SALOMATLIGINI SAQLASH MUAMMOLARINI O'RGANISHGA.****Jabbarova Umriniso Raxmat qizi***Samarqand davlat tibbiyot universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida xorijlik talabalar sonining ortib borishi kuzatilmoqda. Bu jarayon, ta‘lim muassasalarida tibbiy xizmatlarni tashkil etish va xorijlik talabalar salomatligini saqlash masalalarining dolzarbligini oshirmoqda. Mazkur maqolada Samarqand davlat tibbiyot universitetida 2020–2025 yillar davomida qabul qilingan va bitirgan xorijlik talabalar soni tahlil qilingan. Universitetda jami 4558 nafar xorijlik talaba tahsil olayotgani, ularning asosiy qismi Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlaridan ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari xorijlik talabalar orasida tibbiy xizmatlardan foydalanishda til va madaniy to‘siqlar, sog‘liqni saqlash tizimi haqida yetarli axborotga ega emaslik hamda psixologik omillar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar xorijlik talabalar uchun moslashtirilgan tibbiy xizmatlar tizimini takomillashtirish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish va sog‘liqni saqlashni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini asoslab beradi.

**Kalit so‘zlar:** xorijlik talabalar, salomatlik, tibbiy xizmatlar, statistik tahlil, oliy ta‘lim muassasasi.

**Аннотация.** В последние годы в высших учебных заведениях Республики Узбекистан наблюдается устойчивый рост числа иностранных студентов. Данный процесс, в свою очередь, повышает актуальность вопросов организации медицинского обслуживания и сохранения здоровья иностранных обучающихся в образовательных учреждениях. В статье проанализированы данные о приёме и выпуске иностранных студентов Самаркандского государственного медицинского университета за период 2020–2025 годов. Установлено, что в университете обучаются в общей сложности 4558 иностранных студентов, основная часть которых представлена гражданами Индии, Пакистана, Бангладеш, Республики Корея и Турции. Результаты исследования показали, что при использовании медицинских услуг иностранными студентами существенную роль играют языковые и культурные барьеры, недостаточная осведомлённость о системе здравоохранения, а также психологические факторы. Полученные результаты обосновывают необходимость совершенствования системы адаптированных медицинских услуг для иностранных студентов, усиления профилактических мероприятий и развития механизмов управления здравоохранением.

**Ключевые слова:** Иностранные студенты, здоровье, медицинские услуги, статистический анализ, высшее учебное заведение.

**Abstract.** In recent years, a steady increase in the number of foreign students has been observed in higher education institutions of the Republic of Uzbekistan. This process, in turn, enhances the relevance of organizing medical services and ensuring the health preservation of foreign students within educational institutions. This article analyzes data on the admission and graduation of foreign students at Samarkand State Medical University during the period 2020–2025. It was found that a total of 4,558 foreign students are currently studying at the university, the majority of whom come from India, Pakistan, Bangladesh, the Republic of Korea, and Turkey. The research results indicate that language and cultural barriers, insufficient awareness of the healthcare system, and psychological

factors play a significant role in the utilization of medical services by foreign students. The findings substantiate the need to improve an adapted healthcare service system for foreign students, strengthen preventive measures, and develop healthcare management mechanisms.


**Keywords:** foreign students, health, medical services, statistical analysis, higher education institution.

**Kirish:** Globallashuv jarayonlari ta'lim sohasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, turli mamlakatlardan talabalar oqimining ortishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari, xususan tibbiyot yo'nalishidagi universitetlar xorijiy yoshlar uchun tobora jozibador bo'lib bormoqda. Xususan, Samarqand davlat tibbiyot universitetida ham xorijlik talabalar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Ushbu holat ta'lim sifati bilan bir qatorda, xorijlik talabalar uchun tibbiy xizmatlarni samarali tashkil etish masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda.

**Tadqiqot materiali va usullari:** Tadqiqotda Samarqand davlat tibbiyot universitetining 2020–2025 yillar davomida xorijlik talabalarni qabul qilish va bitirish bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar dinamik tahlil usuli yordamida o'rganildi.

**Natijalar va muhokama:** Samarqand davlat tibbiyot universitetida hozirgi kunda jami 4558 nafar xorijlik talaba tahsil olmoqda. Ularning asosiy qismini Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlaridan kelgan talabalar tashkil etadi. Xorijlik talabalar kontingentining bunday geografik xilma-xilligi ularning sog'liq holati, kasallanish xususiyatlari, tibbiy xizmatlardan foydalanish madaniyati hamda sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan munosabatida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Xorijlik talabalar semestrlarga ko'ra notekis taqsimlanganligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalar sonining eng yuqori ko'rsatkichlari boshlang'ich (1–3-semestrlar) va o'rta bosqich (10–12-semestrlar)ga to'g'ri keladi. Bu davrlarda talabalarning moslashuv jarayoni va o'quv yuklamasi yuqori bo'lib, sog'liq bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelish ehtimoli ortadi. Shuningdek, 2025-yilda universitetni 42 nafar xorijlik talaba tamomlashi rejalashtirilgani bitiruvchilar salomatligini baholash va yakuniy tibbiy ko'riklarni sifatli tashkil etish zaruratini ko'rsatadi.

Sam.D.T.U.tahsil olayotgan xorijlik talabalning soni



Shu sababli, ushbu toifadagi talabalar salomatligini ta'minlashda yagona yondashuv yetarli bo'lmay, individual, madaniy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Xorijiy ilmiy manbalarda xorijlik talabalar uchun tibbiy xizmatlardan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida til to'siqlari, sog'liqni saqlash tizimi to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emaslik, tibbiy sug'urta masalalaridagi tushunmovchiliklar hamda tashkiliy va huquqiy jarayonlarning murakkabligi ko'rsatib o'tiladi [4]. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgan talabalar yangi sog'liqni saqlash tizimiga moslashishda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [7-14]. Xorijlik talabalar salomatligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda psixologik omillarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ilmiy manbalarga ko'ra, stress, xavotir, ijtimoiy yolg'izlik va madaniy moslashuvdagi qiyinchiliklar xorijlik talabalar orasida keng tarqalgan bo'lib, bu holat ularning umumiy sog'lig'i va tibbiy xizmatlardan foydalanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [6]. Psixologik muammolarga duch kelgan talabalar ko'pincha tibbiy yordamga kech murojaat qilishi yoki faqat og'ir holatlarda tibbiy xizmatlardan foydalanishi aniqlangan.

Sog'liqni saqlashni boshqarish nuqtayi nazaridan olib borilgan tadqiqotlarda xorijlik talabalar uchun moslashtirilgan tibbiy xizmat modellarini joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Bunday modellar qatoriga ko'p tilli axborot resurslari, xorijlik talabalar bilan ishlashga tayyorlangan tibbiy xodimlar, profilaktik tibbiy ko'riklar hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi dasturlar kiradi [3,5]. Tadqiqotchilar ushbu yondashuv xorijlik talabalar salomatligini mustahkamlash bilan birga oliy ta'lim muassasalarining xalqaro ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlashadi. Mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlarda ham xorijlik talabalar salomatligini saqlash masalalari dolzarb ekanligi qayd etilib, tibbiy xizmatlardan foydalanishda axborot yetishmasligi, til va madaniy to'siqlar hamda tashkiliy muammolar mavjudligi ko'rsatilgan [3,6]. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida xorijlik talabalar salomatligini kompleks tarzda tahlil qiluvchi ilmiy ishlar yetarli emasligi aniqlanmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqurlashtirilgan tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili xorijlik talabalar salomatligini saqlash va ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish holatini o'rganishda kompleks yondashuv muhim ekanligini ko'rsatadi. Tibbiy xizmatlar sifati, axborot bilan ta'minlanganlik, psixologik va madaniy omillar hamda sog'liqni saqlashni boshqarish mexanizmlari xorijlik talabalar salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda [4,5]. Ushbu holatlar Samarqand davlat tibbiyot universiteti misolida olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Natijalar va muhokama:** Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'rib chiqilgan yillar davomida xorijlik talabalar kontingenti barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Bitiruvchilar sonining ortib borishi xorijlik talabalar ta'lim jarayoniga moslashayotganini ko'rsatsada, ularning salomatligini saqlash va tibbiy xizmatlardan foydalanish masalalarini tizimli ravishda o'rganish zarurligini ham ko'rsatadi. Xorijlik talabalar til to'siqlari, iqlim sharoitiga moslashish, madaniy farqlar hamda tibbiy sug'urta masalalari sababli mahalliy talabalarga nisbatan ko'proq tibbiy yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Shu sababli, xorijlik talabalar sonining ortishi universitet tibbiy xizmatlari tizimini takomillashtirishni talab etadi.

**Xulosa va amaliy tavsiyalar:** O'tkazilgan dastlabki tahlil xorijlik talabalar salomatligini saqlash masalasini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatdi. Kelgusida xorijlik talabalar orasida kasallanish holatlari, tibbiy xizmatlardan foydalanish chastotasi va qoniqish darajasini o'rganishga qaratilgan kompleks tadqiqotlar o'tkazish rejalashtirilmoqda

Tadqiqot natijalariga asoslanib, xorijlik talabalar salomatligini saqlash va ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: *Axborot-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish*. Xorijlik talabalar uchun sog'liqni saqlash tizimi, tibbiy xizmatlardan foydalanish tartibi va profilaktik choralar bo'yicha ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz) axborot materiallarini ishlab chiqish va muntazam yangilab borish tavsiya etiladi. *Til va madaniy to'siqlarni kamaytirish*. Tibbiy muassasalarda xorijlik talabalar bilan ishlashga tayyorlangan, xorijiy tillarni biladigan tibbiy xodimlar faoliyatini kengaytirish hamda madaniy sezgirlikka oid treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. *Profilaktik tibbiy ko'riklarni takomillashtirish*. Xorijlik talabalar uchun muntazam profilaktik ko'riklar o'tkazish, ayniqsa moslashuv davrida va o'quv yuklamasi yuqori bo'lgan semestrlarda sog'liq holatini monitoring qilish tizimini joriy etish lozim. *Psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish*. Xorijlik talabalar orasida stress va psixologik muammolarni kamaytirish maqsadida psixologik maslahat xizmatlarini kuchaytirish, anonim maslahatlar va moslashuv dasturlarini tashkil etish tavsiya etiladi. *Sog'liqni saqlashni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish*. Universitet miqyosida xorijlik talabalar salomatligini saqlashga yo'naltirilgan yagona boshqaruv tizimini shakllantirish, tibbiy xizmatlar samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini joriy etish va monitoringni kuchaytirish zarur. *Xalqaro tajribani joriy etish*. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari va tibbiy markazlar tajribasini o'rganish hamda Samarqand davlat tibbiyot universiteti sharoitiga moslashtirish xorijlik talabalar salomatligini saqlash bo'yicha ilg'or amaliyotlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish xorijlik talabalar salomatligini mustahkamlash, tibbiy xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshirish va Samarqand davlat tibbiyot universitetining xalqaro ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. Toshkent, 2019-yil 8-oktabr.
- [2]. "O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolarning ta'lim olishini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Toshkent, 2021-yil.
- [3]. Konakbayeva, M., & Hatipoğlu, S. S. (2025). Structural Challenges to Healthcare Access: A Comparative Analysis of International Students in Türkiye and Kazakhstan. *MANAS Sosyal Araştırmalar Dergisi*, 14(Eğitim Bilimleri Ek Sayısı), 218-234. <https://doi.org/10.33206/mjss.1775924>
- [4]. Sakız H and Jencius M (2024). Inclusive mental health support for international students: Unveiling delivery components in higher education. *Cambridge Prisms: Global Mental Health*, 11, e8, 1–10 <https://doi.org/10.1017/gmh.2024.1>
- [5]. Indrayathi PA, Januraga PP, Ulandari LPS, et al. International students' perceived quality of university health centre services: an exploratory sequential mixed methods study. *Primary Health Care Research & Development*. 2024;25:e39. doi:10.1017/S1463423624000288
- [6]. Beşe, G. G., & Avşar, F. S. (2025). The Right of International Students to Access Healthcare in Practice and Turkish Legal Legislation. *Journal of Health Systems and Policies*, 7(1), 19-40. <https://doi.org/10.52675/jhesp.1723717>
- [7]. Fortier, Julia & Acuna, Daniel & Weekers, Jacqueline & Mosca, Davide. (2010). Health of migrants: the way forward - report of a global consultation, Madrid, Spain, 3-5 March 2010. 10.13140/RG.2.1.2767.9123.

- [8]. Sawir, E., Marginson, S., Deumert, A., Nyland, C., & Ramia, G. (2008). Loneliness and International Students: An Australian Study. *Journal of Studies in International Education*, 12(2), 148-180. <https://doi.org/10.1177/1028315307299699>
- [9]. Forbes-Mewett, H., & Sawyer, A.-M. (2016). International students and mental health. *Journal of International Students*, 6(3), 661 - 677.
- [10]. Montgomery, Catherine. (2009). A Decade of Internationalisation: Has It Influenced Students' Views of Cross-Cultural Group Work at University?. *Journal of Studies in International Education - J STUD INT EDUC*. 13. 256-270. 10.1177/1028315308329790.
- [11]. Gulliver A, Griffiths KM, Christensen H. Perceived barriers and facilitators to mental health help-seeking in young people: a systematic review. *BMC Psychiatry*. 2010 Dec 30;10:113. doi: 10.1186/1471-244X-10-113. PMID: 21192795; PMCID: PMC3022639.
- [12]. OECD (2022), *International Migration Outlook 2022*, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/30fe16d2-en>.
- [13]. Barolia, Rubina & Karamaliani, Rozina. (2008). Caring in nursing in Islamic perspective. *The International Journal of Human Caring*. 12. 55-63. 10.20467/1091-5710.12.1.55.
- [14]. Graetz V, Rechel B, Groot W, Norredam M, Pavlova M. Utilization of health care services by migrants in Europe-a systematic literature review. *Br Med Bull*. 2017 Jan 1;121(1):5-18. doi: 10.1093/bmb/ldw057. PMID: 28108435.

